<b>Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li, Sadibekova Bibisara Djapparovna</b>	
SANOAT TARMOQLARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI .....	1130
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH.....	1136
<b>Abdullayeva Shaxnoza Esonovna</b>	
EKOTURIZMNING O'ZBEKISTON TURIZM BOZORIDAGI RIVOJLANISH SALOHİYATI.....	1141
<b>Muxtarov Botir Abdusattarovich</b>	
ISHSIZ VA BAND BO'LMAGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH VA MEXANIZMLARI .....	1145
<b>Olimov Bekzod Nariman o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA HUDUDIIY RIVOJLANISH VA INVESTITSIYA SIYOSATINING AHAMIYATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	1149
<b>Kurbanov Aybek Turabayevich</b>	
RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLARDA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1154
<b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
MILLIY INNOVATSION TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1162
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	



# MILLIY INNOVATSION TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

## Azimov Bobir Fattohevich

Buxoro davlat texnika universiteti,  
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy innovatsion tizimni transformatsiyalash jarayonida moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash vositalari o'rganilgan. Shuningdek, innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish, venchur moliyalashtirish, grant tizimi va soliq imtiyozlarining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy innovatsion tizimni samarali transformatsiyalash uchun kompleks yondashuv, institutsional islohotlar va raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** milliy innovatsion tizim, transformatsiya, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion rivojlanish, venchur moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya samaradorligi, raqamli iqtisodiyot.

**Abstract.** This article examines the improvement of financial and economic mechanisms for the transformation of the national innovation system. The study analyzes modern trends in innovation development, diversification of funding sources, public-private partnerships, and instruments for supporting innovative activities. Particular attention is paid to increasing the efficiency of investments in innovation infrastructure, as well as the role of venture financing, grant systems, and tax incentives. The findings highlight the need for a comprehensive approach, institutional reforms, and the active implementation of digital economy mechanisms to ensure the effective transformation of the national innovation system.

**Key words:** national innovation system, transformation, financial and economic mechanisms, innovation development, venture financing, public-private partnership, investment efficiency, digital economy.

**Аннотация.** В данной статье научно рассмотрены вопросы совершенствования финансово-экономических механизмов трансформации национальной инновационной системы. В исследовании проанализированы современные тенденции инновационного развития, диверсификация источников финансирования, взаимодействие государственного и частного секторов, а также инструменты поддержки инновационной деятельности. Особое внимание уделено повышению эффективности инвестиций в инновационную инфраструктуру, развитию венчурного финансирования, системе грантов и налоговым льготам. По результатам исследования обоснована необходимость комплексного подхода, институциональных реформ и активного внедрения механизмов цифровой экономики для эффективной трансформации национальной инновационной системы.

**Ключевые слова:** национальная инновационная система, трансформация, финансово-экономические механизмы, инновационное развитие, венчурное финансирование, государственно-частное партнерство, инвестиционная эффективность, цифровая экономика.



## KIRISH

Davlat va jamiyatning milliy innovatsion tizimni transformatsiyalashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishdagi asosiy vazifalarga innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish, mamlakat, hududlar va tarmoqlar darajasida innovatsion rivojlanish va innovatsion faollik kompleks dasturlarini amalga oshirish, aholi va korxonalar (tashkilot)larning innovatsion faolligini yangi darajaga olib chiqish va boshqa vazifalarni kiritish mumkin. Innovatsion yondashuvlar fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tezkor tatbiq etishning jadallashuviga zamin yaratadi, texnologik yangilanish dinamikasini kuchaytiradi va iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshiradi. Natijada, ishlab chiqarish sohasida yuqori sifat darajasiga ega, funktsionalligi keng va bozor talablariga mos mahsulotlar yaratish imkoniyatlari ortadi. Bu esa, o'z navbatida, iste'molchilarning sifat jihatidan yaxshilangan, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining yanada to'laroq qondirilishiga xizmat qiladi. Bunday jarayonlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorni modernizatsiya qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik vazifa sifatida qaralmoqda.

Milliy innovatsion tizimning moliyaviy-iqtisodiy komponentini takomillashtirish faqat davlat byudjeti orqali emas, balki xususiy va xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish, innovatsion risklarni boshqarish mexanizmlari, soliq va huquqiy preferensiyalar hamda institutsional moliya infratuzilmasini shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim, deb o'ylaymiz. Innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonida innovatsion fondlar, ixtisoslashtirilgan moliya kompaniyalari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, sug'urta va lizing kompaniyalari kabi tuzilmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish, iqtisodiyotga jadal tatbiq etish maqsadida tegishli fondlar tashkil etildi. Ammo, tijorat banklari, shu jumladan ixtisoslashgan investitsion va innovatsion banklar kreditlarning asosiy manbalari bo'lishlari talab etilmoqda. Davlat sektori, xalqaro donorlar, rivojlanish banklari yoki xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladigan innovatsion va texnologiya fondlari rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyalarni moliyalashtirishning muhim vositasiga aylanib qolmoqda. Ammo ushbu sohada IT va TKlga ajratiladigan sarf-xarajatlarni maksimallashtirish masalalari har doim ham yaqqol erishilgan yutuq sifatida qaralmaydi. Masalan, eng yuqori darajada innovatsion mamlakatlarda ham YaIMga nisbatan IT va TKlga ajratilgan mablag'lar ulushi yetarli emasligi tanqidlar ostiga olinadi. Matthias Deschryvere boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi Finlandiyada 2005–2019-yillar davomida maqsad qilib qo'yilgan YaIMga nisbatan 4 foizlik ilmiy-tadqiqot intensivligi maqsadlariga hech qachon erishilmaganligini iddao qiladi. 2009-yildagi turg'unlik yilida 3,73 foiz cho'qqisiga chiqqandan so'ng, 2016-yilda 2,72 foizga yetguncha ilmiy-tadqiqot ishlari intensivligi pasayishni boshladi. O'shandan beri hech qanday katta o'zgarishlar yuz bermadi.

Shunday bo'lsa-da, tadqiqotlar davomida milliy innovatsion tizimni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jarayonining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar ham mavjud ekanligi aniqlandi. Istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat moliyasining ulushi juda katta, moliyalashtirishni diversifikatsiyalash masalasi xususiy, xorijiy, korporativ moliyalashtirish evaziga kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda. Innovatsion faoliyatning haddan tashqari tavakkalchiliklarga boy bo'lganligi va bu o'z navbatida ushbu faoliyat bilan shug'ullanishga xususiy sektor vakillarining manfaatdorligini pasaytiradi va oqibatda ular yetarli darajada jalb etilmaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy innovatsion tizim nazariyasi iqtisodiy o'sishning an'anaviy omillaridan farqli ravishda, bilim, texnologiya, institutsional muhit va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni markaziy omil sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsiya alohida korxonalar yoki ilmiy muassasa doirasida emas, balki davlat, biznes sektori, ilmiy-tadqiqot institutlari, moliya institutlari va infratuzilma subyektlari o'rtasidagi tizimli hamkorlik natijasida yuzaga keladi. OECDning milliy innovatsion tizimlar bo'yicha ishlanmalarida aynan "tizimli yondashuv" innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirishning eng muhim metodologik asosi sifatida baholanadi. Shuningdek, Oslo Manual innovatsiyani yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot yoki jarayon sifatida ta'riflab, innovatsion faoliyat tarkibiga nafaqat texnologik, balki moliyaviy va tijorat faoliyatlarini ham kiritadi. Bu esa moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning innovatsion tizim samaradorligidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda milliy innovatsion tizimning transformatsiyasi ko'pincha institutsional modernizatsiya, resurslarni samarali taqsimlash va innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq holda izohlanadi. Tadqiqotchilar innovatsion rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan davlat siyosati va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuviga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shu ma'noda, davlat faqat tartibga soluvchi emas, balki innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi, risklarni pasaytiruvchi va xususiy investitsiyalarni jalb qiluvchi institut sifatida maydonga chiqadi. OECDning innovatsion siyosat bo'yicha tahlillari ham innovatsion tizim samaradorligi uchun keng qamrovli siyosat, institutlararo muvofiqlashtirish va innovatsion infratuzilmaning rivojlanishini zarurligini ko'rsatadi.



Moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar masalasi adabiyotlarda innovatsion tizimning “eng muhim bo‘g‘ini” sifatida alohida ajratiladi. Sababi, innovatsion loyihalar odatda yuqori risk, uzoq muddatli qaytish davri va noaniq natijalar bilan tavsiflanadi. Shu bois an’anaviy bank kreditlash tizimi bunday loyihalarni moliyalashtirishga har doim ham mos kelmaydi. Jahon banki materiallarida kichik va o‘rta biznesni, ayniqsa innovatsion subyektlarni moliyalashtirishda samarali qo‘llab-quvvatlash siyosati, kafolat mexanizmlari va alternativ kapital bozorlari muhim ahamiyatga egaligi qayd etilgan. Alohida tadqiqotlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayoni innovatsiya bosqichlariga qarab farqlanishi, ya’ni dastlabki bosqichda grantlar va davlat dasturlari, o‘shish bosqichida esa venchur kapital, xususiy investitsiyalar va fond bozori instrumentlari ustun bo‘lishi ta’kidlanadi.

Adabiyotlarda venchur moliyalashtirish innovatsion tizimni transformatsiyalashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida ko‘riladi. Chunki venchur kapital yuqori riskli, ammo yuqori o‘shish salohiyatiga ega loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, venchur investorlar nafaqat kapital, balki boshqaruv tajribasi, tarmoq aloqalari va bozorga chiqish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Biroq ko‘plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda venchur infratuzilmasining sust rivojlangani, investorlar uchun huquqiy kafolatlarning yetarli emasligi va innovatsion loyihalarni baholash mexanizmlarining zaifligi ushbu modelning keng tarqalishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli ilmiy ishlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi venchur fondlar, startap akseleratorlari va texnologik parklar bilan integratsiyalashgan moliyalashtirish tizimini yaratish zarurligi asoslab beriladi.

So‘nggi yillardagi ilmiy va amaliy manbalarda raqamli moliya vositalari innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yangi bosqichi sifatida baholanmoqda. Xususan, muqobil ma’lumotlar asosida kredit skoringi, fintech yechimlari, kraudfanding, raqamli to‘lov ekotizimlari va platformaviy moliyalashtirish mexanizmlari kichik innovatsion biznes uchun moliyaga kirishni yengillashtirishi mumkinligi qayd etiladi. Jahon banking tegishli hisobotlarida aynan raqamli moliyaviy xizmatlar MSME subyektlari uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, kredit tarixini shakllantirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishda muhim vosita ekani ko‘rsatilgan. Bu yondashuv milliy innovatsion tizim transformatsiyasida an’anaviy moliyaviy institutlarni raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Global innovatsion rivojlanish bo‘yicha zamonaviy tahlillar ham moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirishni innovatsion raqobatbardoshlikning asosiy sharti sifatida ko‘rsatmoqda. WIPO Global Innovation Index materiallarida innovatsion ekotizimlar samaradorligi investitsiya oqimlari, texnologik taraqqiyot, qabul qilish darajasi va institutsional sharoitlar bilan uzviy bog‘liq ekani qayd etiladi. Bu esa innovatsion tizimni transformatsiyalashda faqat alohida moliyalashtirish vositalarini joriy etish emas, balki ularni yagona strategik tizimga birlashtirish muhimligini anglatadi. Boshqacha aytganda, grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari, venchur kapital va raqamli moliyalashtirish instrumentlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlaganda yuqori natija beradi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy innovatsion tizimni transformatsiyalashda moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalasi ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Mavjud ilmiy qarashlarda asosiy urg‘u innovatsion faoliyatning risk xususiyatini inobatga olgan holda mos moliyalashtirish instrumentlarini tanlash, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va raqamli moliya imkoniyatlaridan keng foydalanishga qaratilgan. Shu jihatdan, milliy innovatsion tizimning transformatsiyasi faqat iqtisodiy o‘shish vositasi emas, balki mamlakatning uzoq muddatli texnologik raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda milliy innovatsion tizimni transformatsiyalashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganish uchun bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, tizimli yondashuv asosida innovatsion tizimning tarkibiy elementlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi yordamida O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirilib, samarali moliyalashtirish mexanizmlari aniqlandi.

Statistik tahlil usuli orqali innovatsion faoliyatni moliyalashtirish ko‘rsatkichlari, investitsiya oqimlari va ularning dinamikasi o‘rganildi. Tadqiqot davomida mantiqiy tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanilib, mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi va asosiy xulosalar shakllantirildi.

Bundan tashqari, induksiya va deduksiya metodlari asosida umumiy nazariy xulosalardan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada qo‘llanilgan metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchligini ta’minlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy innovatsion tizimning barqaror va samarali faoliyati uchun moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni transformatsiya qilish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu, birinchi navbatda, innovatsion jarayonlarning




yuqori tavakkalchilik darajasi, daromad olish muddatining nisbatan uzoqligi hamda ilmiy yangiliklarning bozorga chiqish bosqichidagi murakkabliklari kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy moliyaviy instrumentlar va qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy etishni talab qiladi. Hozirgi kunda, masalan, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniyada davlat ishtirokidagi venchur fondlar, oliy ta'lim muassasalari qoshidagi maxsus innovatsion jamg'armalar hamda startaplar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar keng qo'llanilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekistonda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarining ta'sir kuchini yanada oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, bunday moliyaviy-iqtisodiy choralar O'zbekistonda innovatsiyalarni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

1. Moliyaviy ekotizimni diversifikatsiya qilish va ko'p manbali tizimni shakllantirish. Innovatsion faoliyatni mablag' bilan ta'minlovchi ko'p manbali va ko'p komponentli tizimni shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. O'zbekistondagi an'anaviy bank-kredit mexanizmi innovatsion faoliyat xususiyatlariga har doim ham to'liq mos kelavermaydi. Innovatsiya sohasidagi yuqori risklar sababli banklar ko'pincha moliyalashtirishda ehtiyotkor yondashadi. Shu o'rinda S.A. Karmazinga fikriga ko'ra, bunday risklarni kamaytirish uchun innovatsiyalarga investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratish bilan bog'liq risklar bo'yicha davlat kafolatlarini ta'minlash, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim bo'lgan innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar kreditlari bo'yicha bank foizlarining bir qismini qoplash yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, patentlarni garov sifatida qabul qilish amaliyotini joriy etish soha istiqbollari kengaytirishi mumkin.

2. Yagona innovatsion moliyalashtirish zanjirini shakllantirish. Loyihalarni boshqarishning to'liq jarayoniga mos ravishda innovatsion mahsulotni yaratish, sertifikatlash, patentlash, ommalashtirish va eksport qilish bosqichlarini (pre-seed, seed, early-stage, growth, expansion) qamrab olgan yagona innovatsion moliyalashtirish zanjirini joriy etish zarur. Mazkur yondashuv, avvalo, innovatsion loyihalarni boshqarishning to'liq hayotiy siklini inobatga olgan holda, moliyalashtirishni bosqichma-bosqich va manzilli tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Xususan, ilmiy g'oyalarni shakllantirish va dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichida (pre-seed) grantlar, ilmiy fondlar va davlat qo'llab-quvvatlovi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda (seed) startaplarni rivojlantirish uchun venchur fondlar, biznes-angel investorlar hamda innovatsion akseleratorlar orqali moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish talab etiladi (1-rasm).



1-rasm. Yagona innovatsion moliyalashtirish zanjiri<sup>1</sup>

Shu bilan birga, innovatsion mahsulotni ishlab chiqish va bozorga chiqarishning ilk bosqichlarida (early-stage) xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish modellari joriy etilishi muhim hisoblanadi. Innovatsiyalarning keyingi o'sish bosqichlarida (growth va expansion) esa tijorat banklari, investitsiya fondlari, kapital bozori instrumentlari hamda eksport-kredit agentliklari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur.

1 muallif ishlanmasi



Yagona innovatsion moliyalashtirish zanjiri nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki innovatsion mahsulotni yaratish, uni sertifikatlash, patentlash, standartlashtirish, ommalashtirish va xalqaro bozorlarga olib chiqish jarayonlarini ham kompleks tarzda qamrab olishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion infratuzilma subyektlari — texnoparklar, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi markazlari va patent idoralari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlashni taqozo etadi.

Mazkur tizimni samarali joriy etish uchun raqamli platformalar asosida “yagona innovatsion moliyalashtirish ekotizimi” ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsion loyihalarning barcha bosqichlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yuritish, investorlar va tashabbuskorlar o'rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytirish, moliyalashtirish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

3. Hududiy moliyalashtirish mexanizmlarini individuallashtirish. Har bir viloyat, tuman va shahar darajasida hududiy imkoniyatlar hamda iqtisodiy tarkib farqlanganligi bois, lokal moliyalashtirish instrumentlarini yaratish zarur. Masalan, 2021-yilda ilgari surilgan tashabbusni, ya'ni viloyat hokimliklari huzurida innovatsion jamg'armalar tashkil etish amaliyotini izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish uchun spin-off accelerator funds tashkil etilsa, amaliy natijadorlik yanada ortishi mumkin. Shuningdek, innovatsion jamg'armalar va sektorlararo investitsiya platformalarini shakllantirish zarurati ham kuchaymoqda. Oliy ta'lim muassasalari, texnoparklar va klaster markazlari qoshidagi innovatsion jamg'armalar hali to'liq moliyaviy mustaqillikka ega emas. Ular orqali tadqiqotlarni amalga oshirish, ishlanmalarni sinovdan o'tkazish va tadbirkorlikka yo'naltirish uchun yangi moliyaviy platformalar zarur.

4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutini rivojlantirish. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutining rivojlanishi innovatsiya sohasida ham keng qo'llanishi mumkin. Xususan, “davlat kafolati + xususiy venchur kapital” modeli asosida amalga oshiriladigan innovatsion loyihalar iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Hududiy venchur fondlarini umumdavlat va mahalliy byudjet hamda mahalliy investorlar ishtirokida shakllantirish, viloyat byudjetidan ma'lum miqdorda mablag' ajratgan holda viloyat hokimligi huzurida innovatsion rivojlanish jamg'armalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

5. Venchur moliyalashtirish imkoniyatlarini to'la ishga tushirish. Venchur moliyalashtirishning milliy infratuzilmasining amalda rivojlanmaganligi, mahalliy venchur kapital bozorlarining, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik tizimlarining rivojlanmaganligi bilan bog'liq muammolarni sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishda innovatsion loyihalarni venchur fondlari orqali moliyalashtirish, venchur kapital va investitsion sheriklik modellarini institutlashtirish orqali hal etish mumkin, deb o'ylaymiz. O'zbekistonda venchur moliyalashtirish mexanizmi hali ham institutsional jihatdan yuqori darajada shakllanmaganligi va resurslar jihatdan ancha kamtar ekanligi ko'zga tashlanadi. Ammo mazkur tizim o'z risklarini davlat kafolatlariga suyanan holda innovatsion loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb etishda samarali mexanizm hisoblanadi.

Umumdavlat va mahalliy byudjetlar mablag'lari hamda nodavlat sektori ishtirokida davlat-xususiy sheriklik asosida markaziy va mahalliy darajalarda venchur fondlar va regional innovation capital fundsni tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz.

6. Soliq va tarif siyosatini innovatorlarga moslashtirish. Jahon tajribasida (Fransiya, Kanada, Niderlandiya) innovatsion faoliyat subyektlarini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. O'zbekistonda bu boradagi choralar hali ham umumiy va cheklangan.

Siyosatchilar korporativ soliq tizimi firmalarning innovatsiyalarini qanday yaxshilashi va rag'batlantirishi mumkinligini bilishadi va ular IT va TKI soliq imtiyozlari orqali firmalarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. 1988-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davr tahlili shuni ko'rsatdiki, soliqlarning kamayishi innovatsiyalar ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirdi, soliqlar yukining oshishi esa, aksincha, ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, O'zbekistonda ham ilmiy-texnik ishlanmalarni yaratish va amalga joriy etishga yo'naltirilgan xarajatlarning soliq bazasidan chiqarilishi, innovatsion mahsulot savdosidan olingan daromad uchun imtiyozli soliq stavkasi joriy etilgan. Innovatsion faoliyat natijalarini sotishdan olingan foyda va mablag'lar ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat korxonalari, korxonalar va xususiy shaxslar o'z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligining yetarli bo'lmay turganiga ko'z yumib bo'lmaydi.

Innovatsion faoliyat subyektlarini soliq mexanizmlari orqali rag'batlantirishning dolzarb masalalaridan quyidagilarni eng ustuvor yo'nalishlar sifatida ajratib ko'rsatmoqchimiz:

A) Soliqqa tortish nuqtai nazaridan “Innovatsion xaridor” tashkiliy-huquqiy maqomini ishlab chiqish. Ilmiy-texnik yangiliklarni xarid qilish jarayoni, ya'ni ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tijoratlashtirish sur'atlari kutilmalarni oqlayotgani yo'q. Ko'p sonli moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar faqat innovatsiyalarni yaratuvchi va realizatsiya qiluvchi tashkilotlarga yo'naltirilgan (bu taklif iqtisodiyoti elementlari). Ammo innovatsion mahsulotlarni va xizmatlarni xarid qiluvchilar uchun qo'shimcha moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilmagan (bu talab iqtisodiyotiga xos mexanizmlardir). Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tijoratlashtirishni qo'shimcha rag'batlantirishda “Innovatsion xaridorlar” tashkiliy-huquqiy maqomi ishlab chiqilishi kerak, ularni



turli soliq imtiyozlari va subsidiyalari qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash kerak. Taklif qilinayotgan maqom dastlab Davlat ilmiy-texnik dasturlariga kiritilgan loyihalar natijalarini xarid qiluvchilar, keyinchalik boshqa hududiy ustuvor loyihalar xaridorlari uchun qo'llanilishi mumkin. Innovatsion jarayon subyekti sifatida iste'molchilarga ham turli moliyaviy imtiyozlar berish kerak.

B) Davlat va nodavlat sektorlarida bevosita innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarning ish haqini soliqqa tortishda imtiyozlar joriy qilish. Innovatsiya profilida ishlayotgan kadrlar ish haqiga solinadigan soliqlarni qisman yoki to'liq ozod qilish yo'li bilan nodavlat sektori subyektlarining raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir etish mumkin bo'ladi. Ba'zi raqobatbardoshligi past firmalarda yuqori darajadagi innovatsion va kreativ fikrlovchi mutaxassislarni jalb etish va saqlab qolish uchun raqobatbardosh ish haqini to'lash imkoniyati cheklanganligi, ilmiy faoliyat nufuzining pasayishi ortidan ilmiy mehnatni rag'batlantirishning sustlashuvi muammolari uchramoqda.

C) Oliy ta'lim muassasalari spin-off korxonalarini soliqqa tortishda yagona ijtimoiy to'lov stavkalarini unifikatsiyalash. Shu o'rinda OTMLar qoshida tashkil etilayotgan spin-off korxonalariga soliq stavkasi oddiy korxonalariga nisbatan yuqoriroq ekanligi holatlari mavjud, ya'ni yagona ijtimoiy to'lov 24 %. Shu sababli spin-off korxonalar uchun qulayroq soliq sharoitlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Siyosatchilar korporativ soliq tizimi firmalarning innovatsiyalarini qanday yaxshilashi va rag'batlantirishi mumkinligini bilishadi va ular IT va TKIga soliq imtiyozlari orqali firmalarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. 1988-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davr tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqlarning kamayishi innovatsiyalar ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirib, soliqlar yukining oshishi esa, aksincha, ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumki, O'zbekistonda ham ilmiy-texnik ishlanmalarni yaratish va amalga joriy etishga yo'naltirilgan xarajatlarning soliq bazasidan chiqarilishi, innovatsion mahsulot savdosidan olingan daromad uchun imtiyozli soliq stavkasi joriy etilgan. Innovatsion faoliyat natijalarini sotishdan olingan foyda va mablag'lar ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat korxonalarini, korxonalar va xususiy shaxslar o'z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligining yetarli bo'lmay turganiga ko'z yumib bo'lmaydi.

7. Innovatsion faollikni subsidiyalari qo'llab-quvvatlash. Hududiy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmi va tarkibiga mintaqa moliya tizimining modeli, uning xususiyatlari, davlatning innovatsion siyosatining tabiati, mintaqadagi tadbirkorlik sohasining innovatsion faolligi, hududiy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi va uning ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi ta'sir qiladi. Innovatsion jarayonlarga kam investitsiyalar, shu jumladan, davlat tomonidan moliyalashtirishning cheklanganligi, korxonalarining o'z investitsiya mablag'lari hajmining yetarli emasligi sharoitida innovatsion subsidiyalari mexanizmini qo'llash mumkin.

– 8. Davlat tomonidan moliyalashtirishning ta'sirchanligini oshirish. Rivojlangan mamlakatlarning individual ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda davlat dasturlaridan foydalanish bo'yicha mavjud tajribasi uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda byudjetdan moliyalashtirishga nisbatan dasturiy-maqsadli usulning istiqbollari va afzalliklari haqida dalolat beradi. Bunday yondashuv xususiy sektor uchun murakkab yoki kam jozibador bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Xususiy resurslarning barcha ijobiy jihatlari qaramay, ular har doim ham, masalan, davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yirik ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga yetarli hissa qo'shmaydi. Davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri byudjetlashtirish va moliyalashtirish mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Biroq, ko'pincha DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar yetarli samaradorlik bilan ishlatilmaydi, chunki xususiy biznes, yuqorida ta'kidlanganidek, davlat mablag'larini ulardan oqilona foydalanish tamoyillarini to'liq ta'minlamasdan jalb qilishga intilishi mumkin.

Xuddi shunday fikrlar Y.E. Alievning kitobida ham davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlarni taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarning yetarli emasligi haqidagi mulohazalarda keltiriladi. Zero, bu holat ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirishning tizimli samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston misolida davlat ulushi hali ham yuqori bo'lib, bu esa ilmiy sohada xususiy va xalqaro sarmoyalarni jalb etish imkoniyatlarini cheklab turibdi. Shu bois, davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqa moliyalashtirish manbalarini — jumladan, xususiy sektor, venchur kapital hamda xalqaro grantlar hissasini — kengaytirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy innovatsion tizimni transformatsiyalash jarayoni iqtisodiyotning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishini ta'minlovchi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish samaradorligi bevosita moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning rivojlanganlik darajasi, ularning institutsional muhit bilan uyg'unligi hamda amaliyotga joriy etilish samaradorligiga bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimida bir qator tizimli masalalar mavjud. Jumladan, moliyalashtirish manbalarining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi, bank sektorining innovatsion



loyihalarga nisbatan ehtiyotkor yondashuvi, yuqori risk darajasi sababli xususiy investorlar faolligining pastligi hamda venchur kapital bozorining yetarli rivojlanmaganligi innovatsion faoliyatni kengaytirishda asosiy omillardan bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning sustligi, shuningdek, davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarning fragmentarligi va ularning samaradorligini baholash mexanizmlarining yetarli emasligi ham tizimning umumiy samaradorligini pasaytirmoqda. Raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanish darajasi pastligi esa innovatsion subyektlarning moliyaviy resurslarga tezkor va qulay kirishini cheklab turibdi.

Shu bilan birga, global tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion tizimlarning muvaffaqiyati kompleks moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi institutsional muhitning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Demak, milliy innovatsion tizimni transformatsiyalash jarayonida moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Technology and Innovation Report. Harnessing Frontier Technologies for Sustainable Development. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). United Nations Publication, 2018. p. 17.
2. Deschryvere, M., Husso, K., & Suominen, A. Targeting R&D Intensity in Finnish Innovation Policy. OECD Science, Technology and Industry Working Papers, 2021/08. p. 5. [https://www.oecd.org/en/publications/targeting-r-d-intensity-in-finnish-innovation-policy\\_51c767c9-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/targeting-r-d-intensity-in-finnish-innovation-policy_51c767c9-en.html)
3. Кармазин С.А. Особенности функционирования региональных инновационных подсистем в условиях кризиса и в посткризисный период. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург, 2021. с. 24.
4. Balsalobre-Lorente, D., Zeraibi, A., Shehzad, K., & Cantos-Cantos, J.M. Taxes, R&D Expenditures, and Open Innovation: Analyzing OECD Countries. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 2021, 7(36), p. 3. <https://doi.org/10.3390/joitmc>
5. Андреева Е.С. Управление институтами инновационного развития, созданными на условиях государственно-частного партнерства. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Казань, 2015. с. 47.
6. Aliyev, Y.E. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. 174-bet.
7. Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers.
8. Lundvall, B.-A. (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers.
9. Nelson, R.R. (Ed.). (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford University Press.
10. OECD. (2018). Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation (4th ed.). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264304604-en>
11. OECD. (2010). The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow. OECD Publishing.
12. World Bank. (2020). Enhancing SME Access to Finance and Innovation. World Bank Group.
13. World Bank. (2022). Fintech and the Future of Finance. World Bank Group.
14. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
15. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
16. WIPO. (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the Face of Uncertainty. World Intellectual Property Organization.
17. Mazzucato, M. (2013). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Anthem Press.
18. Aghion, P., & Howitt, P. (1998). Endogenous Growth Theory. MIT Press.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---